

O‘SMIRLIK DAVRIDA SHAXSNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika
fakulteti Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Mahkamova Munida Qaxramon qizi

Toshkent Amaliy fanlar Universiteti dotsenti, PhD

Kudratova Lola Ravshanovna

Anottatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari, xulq atvordagi o‘zgarishlarni o‘smir psixikasiga ta’sirini o‘rganish, bu davrda o‘smir bilan qanday muloqot qilish, bu davrda kelib chiqadigan krizislarni yoritish va bu krizisga qanday yechim topish haqida ma’lumot beriladi. Yoshlarni bu davrdagi vaziyatini to‘g‘ri baholash, ularni tushunish bu davrda gormonal fon organizmda hukmronligi, yoshlarni bu davrdagi emotsional barqarorligi, yoshlarda bo‘ladigan to‘liqsizlik kompleksi, xulq atvor meyorlari shakllanishi, dunyoqarash shakllanishi bu davrdagi o‘smirlarni xarakter xususiyatlari haqidagi olimlar fikrlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Geteroxromnost, Gormonal fon, miyaning prefrontal po‘stloq qismi, psixik rivojlanishdagi inqiroz, To‘liqsizlik kompleksi, o‘smir rivojlanishida artrofdagilar ta’siri.

Аннотация: В статье представлена информация о психологических особенностях детей в подростковом возрасте, влиянии изменений поведения на психику подростковый о том, как общаться с подростками в этот период ,как выделять кризисы возникающие в этот период и как находить решения этих кризисов .

Ключевые слова: Гетерохромия, Гормональный фон, префронтальная кора, кризис психического развития, комплекс неполноценности, влияние среды на развитие подростков.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda yoshlarga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib bormoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham yoshlar to‘g‘risida bir qancha qarorlar farmoyishlar qabul qilmoqda va o‘z nutqida. “Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab quvvatlash, ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha shart sharoitlar yaratish borasida izchil chora tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda”. [1] deb ta’kidlab o‘tadi. O‘smirlik yoshi inson hayotining eng murakkab va o‘ziga xos davrlaridan biridir.

Bu bosqichda biologik fiziologik, psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar juda keskin kechadi. O'smirlik davrida shaxs shakillanishining muhim bosqichlari yuzaga chiqadi, xulq-atvor me'yorlari, hayotiy qadriyatlar va dunyoqarash asoslari rivojlanadi.

Mazkur maqolada o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari, xulq-atvordagi o'zgarishlar, ijtimoiy muhit ta'siri hamda bu bosqichda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari tahlil qilinadi.

Bu davrda asosan bolada miyani prefrontal po'stloq qismi ishlashdan to'xtab o'z o'rnini limbik tizimga bergan bo'ladi. Gormonal o'zgarishlar sababli tana tuzilishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Mana shunday o'zgarishlar o'smir psixikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qizlarda sut bezlari rivojlanishi, jinsiy balog'atga yetish jinsiy organlar rivojlanishi, o'g'il bolalarda esa bo'y o'sishi yelkalar hajmini kattalashishi, ovozlari dag'allashishi kuzatiladi va bu tabiiy holat.

Aynan mana shu davrda o'smirlarda Vigotskiy qonuniyatlari bo'yicha "Geteroxronlik" ya'ni "psixik rivojlanishning bir vaqtda teng bo'lmasligi, o'smirlik davrida ba'zi bir funksiyalar rivojlanib, ba'zilar orqada qolishida tushuniladi"[2] Bu davrda yigitlarda bo'y o'sishi gavda hajmi kattalashgani bilan katta odamga o'xshab qoladi lekin miyani ishlash funksiyalari, analiz sintez qilish atrofni orientirovka qilish, rejalar tuzish yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Bola o'zini katta tanasini eplay olmaydi, mana shu vaziyat geteroxromnost deyiladi. Ya'ni bola na katta emas na kichik emas. Bu o'smirlarda uchraydigan eng kata muammolardan biridir. Psixologiyada bu krizis deb ataladi. Bu davrda bola agressiv bo'lib qoladi, shunday vaziyatlarda yaqin insonlari uni bu vaziyatini tushunishi qo'llab quvvatlashi asosiysi kamsitmasligi zarur. O'smirda psixik jarayonlarning keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatda ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda ota-ona farzand, o'quvchi o'qituvchi, munosabatlarida, o'smirlarni o'z tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatida tushunmovchiliklar, turli nizolar kelib chiqadi. Kutilmaganda bu o'smir qaysar, qo'pol, intizomsiz bo'lib qoladi. Bu vaziyatda ota-onalar ham qattiq qo'l bo'lib bolani yanada vaziyatini chigallashtiradi. Aynan shu davrda uydan chiqib ketish holatlari, o'g'rilik, qizlarda esa begona yigitlar bilan muloqot o'rnatish holatlari kuzatiladi. Bu davrda ota-onalar bolalari bilan do'st tutunishi ularda gormonal fon jadal rivojlanayotgani sababli miyada analiz sintez qilish sust ishlayotganligini qabul qilgan holda ish ko'rishlari lozim. O'smirlar ruhiyatini chuqur o'rgangan yetakchi psixologlardan biri M.G.Davletshin o'quv qo'llanmalarida o'smir yoshlar xarakter xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shunday so'zlarni ta'kidlab o'tgan: O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladi. O'zlarini qobiliyatlarini atrofga namoyon qilishni istashadi.[3]

"Yosh va pedagogik psixologiya" (1974) Bu davr "o'tish davri" "krizis davri" deb nom olgan. L.S. Vigotskiy bunday holatni "psixik rivojlanishdagi inqiroz" deb nomlagan. J. Piajening ta'kidlashicha "ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri –til ,

mazmun, qoidalar asosida shakillantiriladi” [4] bu borada o‘zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o‘z o‘zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Bu davrda kattalardan masofa saqlash va begonalashish ro‘y beradi. O‘zini kattalarga qarshi qo‘yish o‘z fikrini o‘tkazish yaqqol namoyon bo‘ladi, bir tomondan kattalar bilan huquqi teng ekanligini talab qilsa bir tomondan ota-onasini kattalarni unga bildiradigan ishonchiga ehtiyoj sezadi. Kattalarni o‘smir yoshlarga tarbiya berishni eng yaxshi yo‘li umumiy mehnat bilan shug‘ullanishdir. Kattalar o‘smirlar bilan do‘stona, uni tushungan holda, aql bilan rahbarlik qilsa bunga o‘smirlar ijobiy qaraydi. Lekin bu rahbarlik kattalarning xohish istagi ustunligida kechsa o‘smir bunga to‘la qonli qarshilik ko‘rsatadi. O‘smirlik davrida bolani ijtimoiy mavqei o‘zgaradi. Eng katta o‘zgarish ichki dunyosida yuzaga keladi, o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Bu haqida Alfred Adler Avstryalik psixolog shunday degan “Har bir insonda bolalikdan boshlab o‘zini to‘liq, o‘jiz yoki boshqalardan kamroq deb xis qilish holati bo‘ladi, muammo bu hissiyotdan qutulish emas, balki, uni qanday yo‘naltirishdir” [5]. Bolada to‘liqsizlik kompleksi shakllanmasligi uchun uni tengdoshlariga solishtirmaslik, kamsitmaslik o‘zini ijobiy taraflari ustida ishlashi zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki; O‘smirlik bu nafaqat biologik o‘sish balki psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar davri. O‘smirlik davridagi psixologik o‘zgarishlar “Rivolanish psixologiyasi” fanida juda katta ahamiyatga ega. Aynan mana shu yosh davrida yoshlarimizda turli muammolar stress identivlik inqirozi, depressiya, ota-onadan uzoqlashish, giyohvandlik kabi holatlar kuzatiladi. Shunday vaziyatlarni oldini olish bu davr xususiyatlarini chuqur o‘rganish orqali sog‘lom ongli ijtimoiy mas’uliyatli, intellekti yuqori, dunyoqarashi keng avlodni yetishtirish zarurdir. Bu davrda yuzaga keladigan muammolarni jazolash taqiqlash bilan emas, ishonch o‘zaro bir-birini tushunish muximdir. Oilada iliq munosabat o‘rnatish-bu davrda o‘smirlarni emotsional barqaror ekanligini hisobga olish zarur. Yoshlar mana shu davrdan yaxshi o‘tishi o‘spirinlik davridagi muammolarni yo‘qolishiga yoki yengil tarzda o‘tishiga yordam beradi va bu davrda asosan organizmda gormonal fon hukmron ekanligini o‘z o‘zini boshqarish analiz sintez qilish biroz sust ekanligini hisobga olish, bolani dunyoqarashini o‘stirish, intellektini o‘stirish, muhim omillardan biridir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.05.2019-yildagi PQ-4306-son qarori,
2. Vygotskiy L.S., “Pedagogik psixologiya”, 1926
3. M.G. Davletshin. “Yosh va pedagogik psixologiya”, 1974
4. J. Piage., “Umumiy psixologiya”
5. A. Adler., “Induvidual psixologiyasi”
6. A.V. Petrovskiy ., “Umumiy psixologiya”
7. Z.T. Nishanova N.G. Kamilova “Rivojlanish psixologiyasi”

8. P.I.Ivanov M.E.Zufarova., "Umumiy psixologiya"
9. Erikson, E.H.(1968).Identity:Youth and Crisis.W.W Norton & Company
10. Merton R. K(1949).Soical Theory and Social Structure. Free .Press.

